

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI

IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



IMOM BUXORIY SABOQLARI



1/2024

MUNDARIJA (2024/1)

Шовосил ЗИЁДОВ. Амир Темур ва Сукрот.....3

БАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Бахтиёр ТЎРАЕВ. Ҳазрат Занги ота сийратини намоиш этувчи ва тарихий хотирани уйғотувчи асар.....5

Хусниддин АҲМЕДОВ. Янги Ўзбекистонда диний бағрикенгликни таъминлаш давлат сиёсатининг ажралмас қисми.....8

Кахрамон КАРИМОВ. Turkiстонда qozi(sudya)lar tayinlanishi, tergov qilish va hukm chiqarish tarixi.....11

Axror ESHMUNAMATOV. Jizzax vohasi chorvadorlarining ziyorat manzilgohlari va shifobaxsh buyumlari haqida.....13

Муслим АТАЕВ. Шарқда дастлабки илмий марказларнинг шаклланиши ва ривожланиши.....15

Шодиёр АЛИМОВ. Самарканд вилоятида фаолият юритган қозилар ва уларнинг Туркистон ўлкаси ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни (XIX аср охири – XX аср бошлари).....18

Mohira BOYMIRZAYEVA. Markaziy Osiyo yoshlari siyosiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....21

Ҳилола НОРМАМАТОВА. Илк ўрта асрлар Ўрта Осиё тангаларидаги қадимги туркий унвонлар.....23

Nodirbek QORABOYEV. Akademik Said Shermuhamedovning Toshkent davlat universiteti (O'zMU)dagi ilmiy-pedagogik faoliyati.....25

Парвина РАҲМОНОВА. Самарқанддаги Боғи шамол жанги.....26

Shohruh JUMAYEV. Qo'qonda yashagan yahudiylar tarixi va bugungi kundagi faoliyati.....28

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Mo'min HOSHIMXONOV. Mashrab she'riyatida payg'ambarlar tavsifi.....31

Нодиржон АБДУЛАХАТОВ. Мавлавий Чўбин қисмати.....33

Иброҳим УСМОНОВ. Ҳаким Термизийнинг “Ал-Ҳуқуқ” асарида ижтимоий ҳуқуқ масалалари.....36

Масъудхон ИСМОИЛОВ. Хожа Муҳаммад Порсонинг калом илмига қўшган ҳиссаси.....40

Жамшид ШОНАЗАРОВ. Бехбудий ва унинг давлатчилик ғояси.....42

Feruz NARMANOV. Mustaqillik davri tarixshunosligida O'zbekistonda tarix fani va diniy ta'lim o'qitilishining yoritilishi.....44

Javohir ZAFARZODA. Abu Rayhon Beruniy asarlarida – e'tiqod masalasi.....46

Matlyuba SADULLAYEVA. Number as the essence of things: philosophy of Western and Central Asian scientists.....48

Ҳошимжон НИЗОМИДДИНОВ. “Арфу-ш-шазий” асарида қабрлар масаласи.....52

Gulnoza AXMADJONOVA. XX asr Turkiстон ma'rifatparvar olimlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati.....53

Баҳодиржон АЎЗАМОВ. Ҳаким Термизийнинг ҳадис илмида тутган ўрни ва бу соҳага оид асарлари таҳлили.....55

Асилбек ХЎЖАЁРОВ. Насаф фикҳ мактаби ва Баздавий алломалар фикҳий мероси (IX – XII асрлар).....57

Дилдора АХАТОВА. Ёшларни илм-маърифатли қилишда Абу Али Ибн Сино илмий меросининг ўрни (“Ҳайи ибн Яқзон” асари мисолида).....60

Абдулбосит МАМАДАЛИЕВ. Юртимизда фаолият юритган Булғорий алломалар.....61

نعماتوف محمد عيسى. أثر فقهاء الحنفية في تربية الشباب الشيخ إبراهيم الحلبي نموذجاً.....63

НОДИР МАНБАЛАР

Неъматулло НАСРУЛЛАЕВ. Ҳанафий фикҳига оид китобларнинг тарихий босқичлари: “Мухтасарул виқоя” асари мисолида.....66

Ҳусен ДЖУРАЕВ. Махмуд аз-Замахшарийнинг “Муқаддимат ал-адаб” луғат асари нусхасининг Бухорода китобат қилиниши тарихи.....68

Abduqahhor RAXMONOV. Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida adolatli ijtimoiy siyosat g'oyasining yoritilishi.....70

Муҳаббатхон АГЗАМОВА. “Ал-қомил фит-тарих” асарини таълиф этишда “Тарих ар-русул вал-мулк”нинг аҳамияти.....72

Dilafuz TURDIYEVA. XX-XXI asrlarda Malayziya ijtimoiy-siyosiy hayotida diniy omilning o'rni va ahamiyati.....74

Barot AMONOV. “Sahihul Buxoriy” asari sharhlarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari.....78

Abrorxon ASATULLOYEV. Abdurahmon Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asarining qiyosiy tahlili.....82

Давронбек ҚОДИРОВ. Қушайрийнинг “Нахвул кулуб” рисоласидаги ахлокий қарашлари.....84

Акмал ЯКУБОВ. Хива тарихнависларининг XVI-XIX асрларда Хоразм ва Дашти қипчоқ муносабатларига оид асарлари.....86

Ойбек ЯРМАТОВ. Туркистондаги хинд фуқаролари тарихига оид манбалар таҳлили.....88

Нодир ҚОБИЛОВ. “Ал-Жомеъ ас-Саҳиҳ” ҳадис тўпламининг ёзилиш тарихи ва асар бобларини тартиблаш услуги.....91

Абдувоҳид АҲМАДАЛИЕВ. Усул ал-фикҳ илмининг пайдо бўлиши ва шаклланиши.....93

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Lola AZIMOVA. Islom tarixiga oid qissalar va ularning sujeti (XIX asr misolida).....95

Nigora XAKIMOVA. Muttasil hadislarining islom huquqida qo’llanilishi.....97

Nozima IBRAGIMOVA. The etymological analysis of the notion “Ambassador”.....100

Бекжон ҚУРБОНОВ. Ислому ҳуқуқининг шаклланиш тарихи.....102

Алоуддин НЕЪМАТОВ. Имом Мотуридийнинг “Таъвилот ал-Қуръон” асаридаги фикҳга оид ҳадислар таҳлили (“Фотиҳа” сураси мисолида).....104

Nilufar TUYCHIYEVA. G’arbda tasavvufning yangicha ko’rinishlari.....106

Зикирилло ЯЗДОНОВ. Ҳаким ат-Термизийнинг сўфиёна қарашлари ва маломатийликка муносабати.....108

110.....**ليروف شامل عبدروفيس.** دور أبي حنيفة في علم الحديث

Махмуд АБДУРАХМОНОВ. Ҳанафийлар мазҳабида ҳадислардан далил сифатида фойдаланиш тартиблари.....112

Javohirxon SOBIROV. Turkiy davlatlar tashkilotining O’zbekiston milliy manfaatlarida tutgan o’rni.....114

Jasurbek ABDUQODIROV. Ziyorat ob’yektlari va ularni tasniflash.....117

ИЖТИМОИЙ ИНСТИТУТ

Sherzod RAXIMOV. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishda elektron demokratiyaning ta’siri....119

Hakim RASULOV. Sharq va g’arb ta’limotlarida siyosiy va huquqiy madaniyat: genezisi va shakllanishi.....121

Мустафо БОЗОРОВ. Миграция жараёнига дин омилининг таъсири.....123

Sheraxon XASHIMOV. O’zbekistonning xalqaro imijini yuksaltirishda ziyorat turizmining o’rni.....126

Gavhar SUVONKULOVA. Huvaydo hayoti va ijtimoiy muhit.....128

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

Хусан ДЖУРАКУЛОВ. Бугунги глобал техника-технология асрида шахс экологик онгини юксалтириш зарурияти.....130

Ойгул ШАРИПОВА. “Рутбатул ҳаёт”да тана ва рух масаласи.....132

Ramziddin ISAKDJANOV. Islom dunyosidagi falsafiy tafakkur evolyutsiyasi Ibn Sino misolida.....134

Зебинисо АХМЕДОВА. Аҳмад Дониш фалсафасида инсон борлиғи ва олам масаласи.....137

Дилшода РАҲИМОВА, Садоқат ТУРАТОШЕВА. Жамият маънавий даражасини юксалтиришни моделлаштириш: ижтимоий-фалсафий таҳлил.....139

Maqsud TOSHBOVOYEV. Sun’iy intellekt rivojlani-shining falsafiy tahlili.....141

ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

Sarvar SULEYMANOV, Feruza MUSTAFOYEVA. Zamonaviy yoshlar tarbiyasida yangicha yondashuvlardan foydalanish.....144

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Jonibek TANIQULOV. Media axborot erkinligi: muammo va yechimlar.....146

БИР ҲАДИС ШАРҲИ

Ҳаё хусусияти.....148



ZIYORAT OBYEKTлари VA ULARNI TASNIFLASH

JASURBEK ABDOQODIROV
O'zXIA stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati, shu sohada olib borilayotgan islohotlar va mintaqada joylashgan ziyorat turizmi obyektlari tarixi haqida ma'lumot berilgan, shuningdek, ularni tasniflash kabi masalalar yoritilgan. **Tayanch so'zlar:** Ziyorat turizmi, O'zbekiston, Buxoro, ziyorat obyektlarini tasniflash, halol turizm, ziyoratgohlar.

Annotation: This article provides information about the potential of Uzbekistan's pilgrimage tourism, reforms in this field and the history of pilgrimage tourism objects located in the region, as well as issues such as their classification. **Keywords:** Pilgrimage tourism, Uzbekistan, Bukhara, classification of pilgrimage objects, halal tourism, pilgrimage sites.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о потенциале паломнического туризма Узбекистана, реформах в этой сфере и истории объектов паломнического туризма, расположенных в регионе, а также освещены вопросы их классификации. **Ключевые слова:** Паломнический туризм, Узбекистан, Бухара, классификация объектов паломничества, халяльный туризм, места паломничества.

Kirish. Bugungi kunda har bir sohani isloh qilish bilan birga, uni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyoti, aholi turmush tarzi va O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'ining oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday sohalardan biri ziyorat turizmidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ziyorat barcha musulmon o'lkalari kabi Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ham azaldan sayyohlikning bir turi bo'lib kelgan. Qadim zamonlardan buyon ulug' ajdodlari xotirasiga ehtirom ko'rsatish maqsadida muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish odat tusiga aylangan. Shunday uchun ziyorat biz uchun yangi hodisa emas, balki uzoq vaqtdan buyon sayohat qilishning ajralmas motivi bo'lib kelgan. Odatda, ziyorat iqtisodiy bo'lmagan sayohatning eng qadimgi shakli hisoblangan.

Zamonaviy davrdagi turizm va sanoat va unga bog'liq amaliyotlar ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, diniy turizm tadqiqotlarda eng kam o'rganilgan sohalardan biridir. Buni, ayniqsa, turizm sohasining boshqa aspektlari va ular bilan bog'liq bozorlar bilan solishtirganda bilish mumkin. Bu ajablanarli, chunki din asrlar davomida bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda asosiy rol o'ynagan. Shuningdek, odamlarning bo'sh vaqtdan qanday foydalanishiga ta'sir qilgan [1:67]. Bugungi kunda tadqiqotchi va olimlar, hukumat va sayyohlik agentliklari ziyoratni maqsad qilgan sayohatchilar sonining ko'payishiga e'tibor qaratdi. Shuningdek, turizmning umumiy o'sishi bilan birga muqaddas joylarga tashriflar sonining ko'payishini ham o'rgandi. Bunday qiziqish asosan ziyoratchilar iqtisodiy salohiyati tufayli yuzaga kelgan. Natijada, muqaddas qadamjolariga ziyorat turizmi manbalari sifatida qaralmoqda. Din va turizmni yaxlit tarzda o'rganish yuzasidan turli xil tadqiqotlar olib borilgan. Shunday tadqiqotlardan biri Vukonich tomonidan "Turizm va din" kitobida yoritilgan. Ushbu kitobda tadqiqotchi asosan mavzu bo'yicha o'z kuzatishlari va mulohazalarini hujjatlashtirgan. Shuningdek, Yevropa olimlari Svatos va Tomasi o'rta asr davridagi ziyoratdan zamonaviy turizmga o'tishga qaratilgan


manbalar to'plamini tuzdi. Ushbu tadqiqotning maxsus soni ma'naviy sayohatlarga, diniy turizm va ziyorat tadqiqotlariga bag'ishlangan.

Diniy sayohatni o'rganuvchi olimlar tomonidan asosiy e'tibor "sayyoh" va "ziyoratchi"lar o'rtasida farq bor yoki yoqligiga qaratildi. Ko'pgina adabiyotlarda sayyohlar va ziyoratchilar ikki xil nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan. Birinchi va ommabop fikr shundan iboratki, sayyoh va ziyoratchilar bir xil bo'lmasa ham, o'xshashdir, lekin ular tashrif buyuradigan sayyohlik obyekti bir-biridan farq qiladi. Ziyoratchi va sayyohlar yoki ziyorat va turizm o'rtasida farq mavjud emas, degan fikrlar ham mavjud [1:24]. Aksincha, ziyorat odatda turizmning bir turi sifatida qabul qilinadi. Chunki u sayohat usullari va transport, xizmat va infratuzilmalardan foydalanish nuqtayi nazaridan umumiy xususiyatlarga ega. Yana bir qarama-qarshi nuqtayi nazar shundaki, ziyoratchilar sayyoh emas. Balki ma'naviy yoki diniy e'tiqodga asoslangan ziyoratchilardir.

Ushbu mavzuga oid ma'lumotlar ko'plab xorijiy va mahalliy adabiyotlarda berilgan. Jumladan, mamlakatimiz qonunlari,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ziyorat turizmini rivojlantirishga oid farmon va qarorlarida so'z yuritilgan. Shuningdek, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bu borada izlanishlar olib borilgan. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, A.Xudoyarov, R.Komiljon, E.Zayniddinov, N.Abdulhatov, T.G'oziev, M.Maxsudova, S.Usmonova, Sh.Xoshimov, M.Mirzayev, M.Aliyev, xorij tadqiqotchilaridan Bona Kim, J.Dallen Timothy, Daniel H. Olsen, Ömer Akgün Tekin, Zakia, Samori, Tomas, Zahra Moaven va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) tomonidan chiqarilgan "Strategic roadmap for development of islamic tourism" nomli kitobda ham bu haqda ma'lumot bayon qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda dunyoning Halol turizm bo'yicha ixtisoslashgan yetakchi tashkilotlaridan biri "Crescent Rating" ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilga kelib ziyorat maqsadida sayohat qiluvchilar soni 230 mln. kishini tashkil etishi mumkin. Bu esa, kelajakda ziyorat turizmi jahon



turizmining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylanishini, shuningdek, mamlakatimiz uchun istiqbolli yo'nalish ekanini bildiradi. O'zbekiston hududida joylashgan ziyoratgohlarni tasniflash muhim masala hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, tajribali gidlar tomonidan sayyoh va ziyoratchilarga beriladigan ma'lumotlarning tarixiyligi va ilmiyligi saqlab qolinishi lozimdir. Mintaqada joylashgan ziyoratgohlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Hudud jihatidan (masalan: viloyatlar kesimida);
 - Tarixiylik jihatidan (masalan: XVI asrga tegishli yodgorliklar);
 - Asliyat yuzasidan tasniflash (masalan: madrasalar, maqbaralar, minoralar va hokazo);
 - Sulolalar davriyligi yuzasidan (masalan: Temuriylar, Ashtarxoniylar);
 - Din nuqtayi nazaridan tasniflash (masalan: Islom dini bilan bog'liq qadamjolar, Buddizm tarixiy joylari) va boshqalar.
- Yuqorida keltirilgan tasniflashni viloyat misolida ham keltirish mumkin. Buxoro viloyatini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir:

- Viloyat hududida joylashgan maqbaralar;
- Buxoro viloyati minoralari;
- Viloyat hududida joylashgan madrasalar;
- Me'moriy obida va majmualar.

Tahlil va natijalar. O'tmishda Markaziy Osiyodagi ulug' va mashhur kishilar qabri to'g'risida u yoki bu darajada ma'lumot beruvchi asarlardan tashqari, ularni ziyorat qilishga oid asarlar ham yaratilgan. Abu Hafs Umar Nasafiyning (1070–1142) “Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand” (“Samarqand ulamolari to'g'risida hikoya qiluvchi “Qand” asari”), Muin ul-Fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) “Tarixi Mullozoda” (“Mullozodaning tarix kitobi”), Sodiq Munshiy Jondoriyning (1758–1820) “Dahmayi shohon” (“Shohlar dahmasi”), Abu Tohirxoja Samarqandiyning (vaf. 1874) “Samariya”, Hakim Nuratoyning “Ismhoi buzurgoni Buxoro Sharif” (“Buxoro Sharif ulug'larining ismlari”) (1900) va Nosiriddin To'ra Buxoriyning “Tuhfat uz-zoyirin” (“Ziyoratchilarga tuhfa”) (1906) kabi asarlar shular jumlasidandir [5:10]. Imom Buxoriyning “Al-Jome' as-sahih”, Imom Termiziyning “Sunan”, Abu Mansur Moturidiyning “Tavhid”, Abu Mu'in Nasafiyning “Tabsiratul adilla”, Abu Hafs Umar Nasafiyning “Aqoid”, Abu Lays Samarqandiyning “Bahru-lulum”, Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof an aqoiqi-tanzil”, Abu Hafs Kabir Buxoriyning “Fatovo”, Burhoniddin Marg'inoniyning “Hidoya” kabi noyob va qimmatbaho asarlari islom dini rivojida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu olimlarning muqaddas ziyoratgohlari O'zbekiston hududida joylashgani mavzuning muhim ekanini ko'rsatadi [3:3].

Tarixda yashab o'tgan ota-bobolarimiz bilimli va turli sohalarida olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirgan. Bugungi kunda biz ko'rib turgan tarixiy yodgorliklar hozirgi kunga o'xshash texnik uskunalar bo'lmagan zamonda qurilgan. Shunga qaramasdan hozirgacha ushbu obidalar o'zining salobati bilan dunyo sayyohlarini lol qoldirib kelmoqda. Bu esa, yosh avlod uchun ilhom baxsh etadi. Ta'lim sohasida

bolalar bunday madaniy meros obyektlariga uyushtirilgan sayohatlardan ko'p narsalarni o'rganishi mumkin.

Madaniy meros va tarixiy obidalar jamiyatda quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- Ijtimoiy kapitalni shakllantirishga yordam beradi;
- Mahalliy urf-odat va madaniyatni saqlashda muhim rol o'ynaydi;
- Ijoiy xulq-atvorni targ'ib qiladi;
- Jamiyat imidji va g'ururini yuksaltiradi;
- Hududlarni obodonlashtirishga yordam beradi [7:762].

Ziyorat turizmini rivojlantirishda tarixiy va madaniy meros obyektlarining roli juda kattadir. Shu ma'noda ziyorat turizmini madaniy va ma'naviy turizm deb ham atash mumkin. Jumladan, “madaniy turizm” sayyohlarga ushbu mamlakat tarixi, an'analari, xo'jalik faoliyati, madaniyati, urf-odatlari va boshqa jihatlari bilan tanishish imkonini beradi. Insonlarning ana shunday joylarga tashrifi ularning ma'naviyatining yuksalishi va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Islom sivilizatsiyasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan, ilm nurini taratuvchi markazlaridan bo'lgan Movarounnahrda ko'plab diniy va dunyoviy olimlar, ulug' shaxslar yetishib chiqqan. Ularning mangu qo'nim topgan makonlari bugungi kunda ziyoratgohlarga aylantirilgan. Islom olamiga minglab ulamolarni yetishtirib bergan muqaddas zaminimiz yuzlab ziyoratgoh va qadamjolar o'lkasi sifatida ham mashhurdir.

O'tmishda Markaziy Osiyoda ulug' va mashhur kishilar qabrlari to'g'risida bir necha asarlar yaratilgan. Ular orasida Muin ul-Fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) “Tarixi Mullozoda” asari alohida o'ringa ega. Ushbu asarda Buxorodagi muqaddas ziyoratgohlar to'g'risida ma'lumot berilibgina qolmasdan, o'lkamizdagi islomiy ziyorat qoidalari, tartibi va odobi haqida ma'lumot berilgan va ular tizimga solingan.

Qadimiy Turonning qoq markazida joylashgan O'zbekiston jahonga mashhur tarixiy shaharlari, boy tarixiy-madaniy merosi va betakror me'moriy obidalari bilan mashhur. Buxorodagi Abu Hafs Kabir Buxoriy – Hazrati Imom (767–832), Chor Bakr, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni (taxm. 1103–1179) va Xoja Bahouddin Naqshband (1318–1389), Samarqanddagi Qusam ibn Abbos (624–677), Imom Buxoriy (810–870), Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944), Amir Temur (1336–1405) va Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490), Surxondaryodagi Hakim Termiziy (820–932) va Imom Abu Iso Termiziy (824–892), Toshkentdagi Imom Qaffol Shoshiy (903–976), Zangi Ota (vaf. 1258) va Shayx Xovandi To'hir (vaf. 1355), Xivadagi Pahlavon Mahmud (1247–1326) maqbaralari yurtimizdagi mavjud ziyoratgohlardan bir qismi, xolos. Islom olamiga minglab ulamolarni yetishtirib bergan muqaddas zaminimiz ziyoratgoh va qadamjolar o'lkasi sifatida ham mashhurdir. Bugungi kunda O'zbekistonning ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha salohiyati yetarli hisoblanadi. Buning uchun yuqorida ta'kidlangan fikrlar ham inobatga olinsa, maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dallen J. Timothy, Daniel H. Olsen. Tourism, religion and spiritual journeys. – USA, Canada: Routledge. – P.24,67.
2. Islamov Z. O'zbekistondagi qo'lyozma nusxalarining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati// Islom tafakkuri. – T.: 2021. – B.3.
3. Khashimov Sh.J. Pilgrimage tourism in Uzbekistan: problems and solutions// Electronic research journal of social sciences and humanities: V.2. 2020. Iss. 1. – P.8.
4. Muin ul-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. Tarixi mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro. Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga

tayyorlovchi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Komiljon Rahimov) – T.: Fan. 2019. – B.10.

5. Mirzayev M., Aliyev M. Turizm asoslari. – T.: Milliy jamiyat nashriyoti, 2011. – B.12.

6. Surayyo Usmanova. Ziyarah tourism as a new linkage for tourism development in Uzbekistan. New voices from Uzbekistan. 2019. – P.31.

7. Ömer Akgün Tekin. Islami turizm: dünya'daki ve türk-ie'deki genel durum Üzerine bir inceleme// The journal of international social research, 2014. – B.762.